

## BIOLOGIYA DARSIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

**Rashidova Xurshida Halimovna**

Navbahor tuman kasb-hunar maktabi bialogiya fan o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida dars samaradorligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zaruriyati hamda interfaol darslar ta’lim sifatini ko‘tarishdagi asosiy vazifalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** hujayra, moddalar va energiya almashinushi, evolyusion rivojlanish, odam genetikasi, biologik tushuncha, genlarning o‘zaro ta’siri, irsiyat, o‘zgaruvchanlik, genetik simvollar.

### **KIRISH**

Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va ular egallagan bilimlarni o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzlusiz oshirib borishlari lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim-tarbiyani tubdan isloh qilish ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; «Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minalash»ga bog‘liqligi ko‘rsatiladi.

Biologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ayrim muammolarga duch kelishi muqarrar.

Barcha o‘quvchilarni dars jarayoniga to‘la jalb qilish muammosi, chunki o‘quvchilar darsda to‘la qatnashishlari mumkin, ammo darsda barcha o‘quvchilar tushuna olayotganligini hech kim to‘la kafolatlay olmaydi, mana shu joyda o‘qituvchining darsda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanishi asosiy ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

R.Ishmuhamedovning ta’kidlashicha, pedagogik texnologiyalar qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar, quyidagilarni o‘z ichiga olmog‘i lozim:

- pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayoni)ning samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Ma’lumki, o‘quvchilarning bilish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deyiladi. Biologiya darslarida didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga imkon beradi. Didaktik o‘yinli darslarning syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, anjumanlar va o‘yin mashqlar kabi turlari bor, bunda, masalan, biologiya darslarida matbuot anjumandan foydalanish yo‘llari ishlab chiqilishi mumkin. Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanishda o‘qituvchi tomonidan darsning quyidagi bir necha bosqich asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

I bosqich. Psixologik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilardan teng sonli, deyarli teng kuchli kichik guruhlarni shakllantirish kerak.

II bosqich. Kichik guruhlarga muammoli savollardan iborat bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini tarqatish va topshiriqning didaktik maqsadi bilan tanishtirish lozim.

III bosqich. O‘quvchilarning bilish faoliyatini o‘quv muammolarini hal etishga yo‘naltirish.

Bu dars jarayonida «Aqliy hujum»dan foydalanilsa, o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llab, bilimlari kengaytiriladi, chuqurlashtiriladi, aqliy faoliyat usullari egallanadi.

«Aqliy hujum» darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanib darslarni tashkil etishning didaktik maqsadi:

- o‘quvchilarning bilish faoliyatini faol- lashtirish orqali chuqur bilim egallash va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish;
- o‘quvchilar bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo‘lgan intilishni rivojlantirish;
- o‘quvchilarning nutqini o‘sirish, o‘z fikrini lo‘nda va mantiqan to‘g‘ri bayon etish, ularni dalillash ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarni o‘zlashtirishida qiyinchiliklar tug‘diruvchi mavzu larni o‘qitishda turli metodlardan foydalanib darslar sifatini oshirish bilan birga yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, fanga oid savollarga o‘zi tushungan holda mustaqil javob beradigan, atrof-muhitni sevuvchi, o‘z organizmi haqida batafsil fikrga ega, atrofmuhitda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarga o‘z fikrini bildira oladigan insonlar etib tarbiyalashda samara beradi, o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2018.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiya- lar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: «Iste’- dod», 2018.
3. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv metodik qo‘llanma. – T.: «Bilim», 2014.
4. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – . Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.